
Hasan va Husan Oxunovlarga Qirguli mavzeidan yangi uylar topshirildi

“Mehr daftari” jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan Farg‘ona shahar hokimligi tomonidan egizaklarning har birlariga “Yulduz” mahalla fuqarolar yig‘inidan yangi uy uchun order va ushbu xonadon kaliti tantanali ravishda topshirildi. E‘tiborlisi, xonadon barcha maishiy va zarur uy-ro‘zg‘or jihozlari bilan to‘liq ta‘minlandi.

- Biz bugun juda ham hursandmiz. Prezidentimiz tomonidan bizlarga berilgan bu uylarda yashashimiz uchun barcha zarur sharoitlar mavjud. Bu e‘tibor va g‘amxo‘rligidan juda minnatdormiz, - deydi aka-uka Oxunovlar.

Joriy yilda Farg‘ona shahrida mehribonlik uylarining 7 nafar bitiruvchilariga uy-joylar ajratilishi rejalashtirilgan bo‘lib, ayni kunga qadar ularning 4 nafarlari uy-joyli bo‘lishdi.

Farg‘ona shahar hokimligi Axborot xizmati

2023-05-15 09:26:12